

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga qilinmoqda. Bu esa, aholi xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biz-nesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

		42 319- Ro'yxatdan o'tgan
2 384	kichik korxonalar	39 935 - mikrofirmalar
		40 607- Faoliyat ko'rsatayotgan
2 351	- kichik korxonalar	38 256- mikrofirmalar
		8 245- Yangi tashkil etilgan (2021- yilda)
303	- kichik korxonalar	7 942 - mikrofirmalar


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 9 329 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 787 taga yoki 42,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 8 947 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 682 taga yoki 42,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 424 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 380 taga yoki 18,6 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 24 640 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 132 taga yoki 26,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23 772 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 061 taga yoki 27,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-sentabr oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 464 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 867 taga yoki 24,1 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

8



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 654 tani tashkil etib, ulardan 641 tasi yoki 98,0 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 84 taga yoki 15,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 73 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

	2020 y.	2021 y.
Jami	59	73
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	13	9
Sanoat	25	23
Qurilish	6	2
Savdo	9	18
Tashish va saqlash	2	2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	3
Axborot va aloqa	-	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	4
Boshqa turlar	3	10

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarining davlatlar kesimida soni**
(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

9



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy
kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


	74-Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
	322-Sanoat
	37-Qurilish
	106-Savdo
	16-Tashish va saqlash
	20-Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
	6-Axborot va aloqa
	10-Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
	50-Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

■ O'sish sur'ati ■ 2021- y. ■ 2020- y.



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

11


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Samarqand viloyati	641	432	209
Samarqand sh	279	168	111
Kattaqo'rg'on sh	21	17	4
tumanlar:			
Oqdaryo	36	29	7
Bulung'ur	25	11	14
Jomboy	45	34	11
Ishtixon	14	9	5
Kattaqo'rg'on	12	10	2
Qo'shrabot	23	12	11
Narpay	5	4	1
Payariq	17	11	6
Pastdarg'om	29	22	7
Paxtachi	9	5	4
Samarqand	44	33	11
Nurobod	16	14	2
Urgut	53	44	9
Toyloq	13	9	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 279 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 43,5 %), Urgut 53 ta (8,3 %), Jomboy 45 ta (7,0 %), eng kamlari esa Narpay 5 ta (0,7 %), Paxtachi 9 ta (1,4 %) hamda Kattaqo'rg'on 12 ta (1,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (29,5%), Pastdarg'om (8,4%), Urgut (8,2%), Samarqand (7,3%), Payariq (5,2%), Ishtixon (5,1%), Kattaqo'rg'on (5,0%), Paxtachi (4,8%), Oqdaryo (4,2%), Toyloq (4,1%), Bulung'ur (4,0%), Jomboy (3,4%), Narpay (3,1%), Nurobod (2,8 %), Kattaqo'rg'on shahri (2,6%) va Qo'shrabot (2,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2021-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (25,2 %), Pastdarg'om (9,1 %), Urgut (8,2 %), Samarqand (7,9 %), Ishtixon (5,8 %), Oqdaryo (5,4 %), Kattaqo'rg'on (5,3 %), Payariq (4,9 %), Toyloq (4,4 %), Jomboy hamda Bulung'ur (4,1 %), Nurobod (3,8 %), Narpay (3,3 %), Paxtachi (3,2 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,0 %) va Qo'shrabot (2,3 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (35,6 %), Urgut (8,1 %), Samarqand (7,6%), Pastdarg'om (7,0%), Kattaqo'rg'on (5,1 %), Payariq (4,6 %), Kattaqo'rg'on shahri (4,4 %), Oqdaryo hamda Nurobod (3,9 %), Bulung'ur (3,8 %), Jomboy hamda Ishtixon (3,6 %), Toyloq (3,0 %), Paxtachi hamda Qo'shrabot (2,2 %) va Narpay (1,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqdi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

14




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)


15



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (16,9 %), Pastdarg'om (12,5 %), Samarqand (12,3 %), Payariq (8,7 %), Kattaqo'rg'on (8,1 %), Oqdaryoda (7,5 %), Urgut (7,2 %), Jomboy (6,3 %), Bulung'ur (5,3 %), Ishtixon (4,4 %), Toyloq (4,3 %), Narpay (3,4 %), Qo'shrabot (1,3 %), Kattaqo'rg'on shahar (0,9%), Paxtachi (0,7 %) va Nurobod (0,2 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqt-i-vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar lists "RASMIYIY STATISTIKA" categories such as E'on qilish taqvimi, Metama'lumotlar, Makroko'satkichilar, Milliy hisobiar, Narx va indekslar, Investitsiyalar, Qurilish, and Tashqi iqtisodiy faoliyat. The central search form has fields for "STIR kodini kiritning" and "Rasmidagi kodni kiritning", with a placeholder "Kodni yangilash uchun rasmiga bosing". A dropdown menu shows options like Xizmatlar ro'yxati, Elektron hisobot, KTYaDR ma'lumotlari, Usulby materiallar, Statistik klassifikatsiyalar, Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati, and Korxona pasporti. To the right, there are sections for "FOYDALI MA'LUMOTLAR" containing links to Aholini ro'yxtaga olish 2022, Harakatlar strategiyasi, Press-relezzlar, Choraklik natijalar, Nashrlar – statistika haqida, Usulby materiallar (Windows), and Sanoat mabsutotlari ishlab chiqaruvchilar.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'rالayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo`limi**
Tel.: 66 235-14-42